

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliyana Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i>	
MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI:	
MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i>	
BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI	
(Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i>	
IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i>	
MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA:	
O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL	
ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i>	
OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT	
BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i>	
JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR	
HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i>	
RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i>	
RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i>	
HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY	
ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i>	
СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ	
ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ	
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i>	
PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmurotov Umidjon Temurovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA	
SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i>	
JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING	
STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIK LARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIK LAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026

Accepted: 17 January 2026

Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

SUFI-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE IDEA OF TOLERANCE

(Based on the treatise “Risala-yi Tanbih al-‘Ulama” by Makhdumi A‘zam)

Urakov Nodirbek Boboqulovich

Samarkand Agroinnovations and Research University

Assistant of the Department of Digital Technologies, Tourism and Humanities

Abstract. This article analyzes the issues of tolerance, spiritual patience, non-neglect of others, and respect for inner perfection based on the Sufi views expressed in the work of Makhdumi Azam (15th–16th century) “Risala Tanbih ul-Ulama” that fanaticism towards external knowledge and disconnection from inner enlightenment create spiritual narrowness in human thinking. The work criticizes the uncompromising attitude of scholars who are limited to external knowledge towards the followers of the order, and argues that human perfection is achieved not only through external actions, but also through inner upbringing, state, and enlightenment. The article explores the idea of tolerance in relation to human nature, the concept of existence, and the doctrine of guardianship.

This article analyzes the philosophical foundations of the idea of tolerance formed within the framework of Islamic Sufism. In the work, the article explores the relationship between the external and the internal, human nature, the concept of mortality, and the role of the guidance of a perfect guide in the formation of tolerance. Sufi tolerance is interpreted not as a moral call, but as an ontological state that expresses the level of spiritual maturity of a person.

Keywords: tolerance, Sufism, Makhdumi Azam, outward and inward, sainthood, extinction, human perfection, Islamic philosophy, human nature, perfect guide, spiritual perfection.

BAG‘RIKENGLIK G‘OYASINING TASAVVUFIIY-FALSAFIIY TAHLILI

(Maxdumi A‘zamning “Risolai tanbeh ul-ulamo” asari asosida)

Uraqov Nodirbek Boboqulovich

Samarqand Agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti

Raqamli texnologiyalar, turizm va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti

Email: u-nodirbek@yandex.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Maxdumi A‘zam (XV–XVI asr)ning “Risolai Tanbeh ul-ulamo” asarida zohiriy ilmga mutaassiblik va botiniy ma‘rifatdan uzilish inson tafakkurida ma‘naviy torlikni yuzaga keltirishi ifodalangan tasavvufiy qarashlar asosida bag‘rikenglik, ma‘naviy sabr, boshqani inkor qilmaslik va botiniy kamolotga hurmat masalalari falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Asarda zohiriy ilm bilan cheklanib qolgan ulamolarning tariqat ahliga nisbatan murosasiz munosabati tanqid qilinib, inson kamoloti faqat zohiriy amallar bilan emas, balki botiniy tarbiya, hol va ma‘rifat orqali kamol topishi asoslab beriladi. Maqolada bag‘rikenglik g‘oyasi inson fitrati, vujud konsepsiyasi va valiylik ta‘limoti bilan bog‘liq holda ochib berilgan.

Mazkur maqolada islom tasavvufi doirasida shakllangan bag‘rikenglik g‘oyasining falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Asarda Maqolada zohir va botin nisbati, inson fitrati, fano tushunchasi hamda komil murshid irshodining bag‘rikenglik shakllanishidagi o‘rni ochib beriladi. Tasavvufiy bag‘rikenglik axloqiy chaqiriq emas, balki insonning ma‘naviy kamolot darajasini ifodalovchi ontologik holat sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar: bag‘rikenglik, tasavvuf, Maxdumi A‘zam, zohir va botin, valiylik, fano, inson kamoloti, islom falsafasi, inson fitrati, komil murshid, ma‘naviy kamolot.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N15>

Kirish. Islom falsafasi va tasavvufiy meros insonning ma'naviy kamoloti va axloqiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatda insonning ma'naviy va axloqiy muammolari ko'plab ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, falsafiy va tasavvufiy tafakkur insonning ma'naviy rivojlanishi va axloqiy tarbiyasida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi (Qur'oni Karim, 2020).

Bu maqolada maqsad shunday: inson ma'naviy kamolotining asosiy prinsiplarini tahlil qilish, tasavvufiy va falsafiy nazariyalarni solishtirish, shuningdek zamonaviy ilmiy qarashlar bilan uyg'unlashtirish. Maqola zamonaviy va an'anaviy manbalardan foydalangan holda tahliliy va ilmiy yangilikni taqdim etadi.

Hozirgi zamon jamiyatida g'oyaviy, diniy va madaniy ixtiloflar kuchayib borayotgan bir paytda bag'rikenglik muammosi faqat ijtimoiy-siyosiy tushuncha sifatida emas, balki chuqur falsafiy mazmunga ega kategoriya sifatida namoyon bo'lmoqda. Islom falsafasi va tasavvuf ta'limotida bag'rikenglik insonning tashqi munosabatlaridan ko'ra, uning ichki ma'naviy holati bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Shu bois mazkur maqolada tasavvufiy manbalar asosida bag'rikenglik g'oyasining ma'naviy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bag'rikenglik masalasiga oid tadqiqotlar zamonaviy falsafa, dinshunoslik va ijtimoiy fanlarda keng yoritilgan [1; B.7]. Biroq klassik tasavvuf manbalarida mazkur tushuncha axloqiy emas, balki ontologik kategoriya sifatida qaraladi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, germeneytik va falsafiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari olindi [2; B.25–26].

Tadqiqotda falsafa va tasavvufning klassik namoyandalari asosiy manba sifatida qaraldi. Maxdumi A'zamning Risolai tanbeh ul-ulamo (357b–365a) asarida ma'naviy va ilmiy kamolotning asosiy qoidalari berilgan. Qushayriyning Ar-Risolat ul-qushayriyasi va Hujviriyning Kashf ul-mahjub asarlari insonning ruhiy rivojlanishi va ixlos prinsiplarini tahlil qilishda asosiy manba hisoblanadi (Qushayriy, 2002; Hujviri, 2001).

G'azzoliyning Ixyo ulumid-din asari axloq va ma'naviyatning integrativ konsepsiyasini taqdim etadi, shuningdek, Rumiy va Jomiy asarlari insonning ichki va ma'naviy dunyosini boyitishdagi rolini ochib beradi (G'azzoliy, 2004; Rumiy, 1998; Jomiy, 2000).

Metodologik jihatdan maqola ta'rifiy-tahliliy va komparativ usullardan foydalanadi. Bu usullar klassik va zamonaviy adabiyotlarni taqqoslash, ularning umumiy va farqli nuqtalarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ilmiy yangilikni aniqlash va natijalarni obyektiv tahlil qilishda zamonaviy tadqiqot metodlari qo'llanildi (Abdullayev, 2018; Karimov, 2021).

Muhokama. Maxdumi A'zam asarida zohiriy ilmga suyanib qolgan ulamo qatlami tanqid qilinadi. Muallifga ko'ra, botiniy ma'rifatdan uzilgan ilm insonni ma'naviy torlikka olib keladi. Tasavvufda inson fitrati pok bo'lib, bag'rikenglik ana shu fitratning tabiiy ifodasidir. Fano maqomiga yetish orqali inson o'z "men"idan voz kechib, o'zgalarni qabul qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu holat bag'rikenglikning tasavvufiy-falsafiy asosini tashkil etadi.

Tasavvuf va falsafada ma'naviy kamolot konsepsiyalari har xil tavsiflangan bo'lsa-da, ularning asosiy umumiy jihatlari bor. Bular: insonning ichki pokligi, axloqiy yuksalish va ma'naviy barqarorlik. Maxdumi A'zam va Qushayriy insonning ma'naviy rivojlanishida ilmiy va axloqiy bilimlarning ahamiyatini ta'kidlaydilar.

G'azzoliyning ta'riflariga ko'ra, inson faqat bilim va ma'rifati orqali emas, balki ixlos va ibodat orqali ham kamol topishi mumkin. Bu nuqtai nazar Rumi va Jomiy asarlaridagi ichki dunyo va ma'naviy poklik tushunchalari bilan uyg'un keladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda (Abdullayev, 2018; Karimov, 2021) insonning ma'naviy kamoloti ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatilgan. Bu zamonaviy ahamiyatni ko'rsatadi va klassik nazariyalar bilan integratsiyalana oladi.

Shu bilan birga, inson ma'naviy kamolotida axloq va ma'rifati bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bu zamonaviy fanning psixologiya va sotsiologiyasidan olingan nazariyalar bilan ham tasdiqlanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida diniy-ma'naviy bag'rikenglik, turli qarash va maktablarga nisbatan murosali munosabat masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Islom tafakkuri tarixida bu muammo yangi emas: u zohiriy ulamolar va botiniy tariqat ahli o'rtasidagi bahslar shaklida ko'p asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan.

Maxdumi A'zamning "Risoi Tanbeh ul-ulamo" asari aynan shu muammoning klassik tasavvufiy yechimini taklif qiladi. Asarning asosiy g'oyasi — boshqani inkor qilish jaholatdan, bag'rikenglik esa ma'rifatdan tug'iladi degan fikrdir.

1. Zohir va botin qarama-qarshiligi: bag'rikenglikning ildizi.

Asarda shariat, tariqat va haqiqat o'rtasidagi farq quyidagicha ifodalanadi: "Shariat qavllardir, tariqat fe'llardir, haqiqat esa holatlardir."

Bu ta'rif falsafiy nuqtai nazardan bilim → amal → hol zanjirini anglatadi. Muallif zohiriy ilmni inkor etmaydi, lekin uni mutlaqlashtirishni ma'naviy torlik, ya'ni bag'rikenglikka zid holat sifatida baholaydi.

Zohirga mahkam yopishib olgan inson: boshqani tushunmaydi, botiniy tajribani inkor qiladi, oxir-oqibat, ixtilof va adovatga sabab bo'ladi.

Shu ma'noda, tasavvufda bag'rikenglik — bilim kamchiligini emas, qalb kengligini anglatadi.

2. Inson fitrati va bag'rikenglik falsafasi.

Asarda inson aslida pok fitratda yaratilishi ta'kidlanadi: "Har bir tug'ilgan bola fitratda tug'ilur..." Bu g'oya falsafiy jihatdan insonning: tabiiy ravishda pok, murosaga moyil, birlashtiruvchi mavjudot ekanini anglatadi. Lekin keyinchalik: ilm, nasab, maqom, mansab kabi oriziy (tasodifiy) sifatlar inson qalbida hijobga aylanadi. Ana shu hijoblar insonni takabburlikka, boshqani past ko'rishga olib boradi. Bag'rikenglik esa bu hijoblarni bartaraf etish bilan bog'liq ma'naviy holatdir.

3. Komil murshid va ma'naviy sabr.

Maxdumi A'zam bag'rikenglikni mustaqil ravishda emas, tarbiya va irshod bilan bog'laydi. Uningcha: Komil murshidsiz suluk — xatarli, o'zboshimchalik — adashishga olib keladi. Adashgan inson esa boshqani ham adashtiradi.

Bu yerda bag'rikenglik passiv toqat emas, balki: o'z nafsini cheklash, o'zini mutlaq haq deb bilmaslik, boshqani kamolot yo'lida sherik sifatida ko'rishdir.

Qisqasi, murshid nafaqat ruhiy yo'lboshchi, balki bag'rikenglik madaniyatining ustozidir.

4. Vujud ta'limoti va bag'rikenglik.

Asarda vujud ikkiga bo'linadi: Haqiqiy vujud — Allohning vujudi;

Majoziy vujud — maxluqotning vujudi. Inson o'z majoziy vujudi (menlik, ilmiy mag'rurlik, nasabiy faxr) bilan yashar ekan, u: o'zini markaz deb biladi, boshqani rad etadi, bag'rikenglikdan mahrum bo'ladi. Fano (o'zlikdan kechish) esa: insonni ichki kenglikka, umuminsoniylikka, muhabbat va rahmdillikka olib boradi.

Bu tasavvufiy falsafada bag'rikenglikning eng chuqur metafizik asosidir.

5. Zohiriy ilm va botiniy ma'rifat muammosi.

Islom tafakkuri tarixida zohiriy ilm (shariat ahkomlari) va botiniy ma'rifat (qalb ilmlari) o'rtasidagi munosabat doimo muhokama qilingan masalalardan biri bo'lib kelgan. Maxdumi A'zam "Risolai tanbeh ul-ulamo" asarida aynan shu muammoga alohida e'tibor qaratgan holda, zohiriy bilim bilan cheklanib qolgan ulamo qatlamini tanqid qiladi.

5.1. Muallifga ko'ra, zohiriy ilm insonni qonun va shakl doirasida tartibga solsa, botiniy ma'rifat insonni inson qiladi, ya'ni qalbni poklab, o'zgalarni anglash qobiliyatini rivojlantiradi. Ana shu qobiliyat esa bag'rikenglikning ildizini tashkil etadi. Faqat zohirga bog'lanib qolgan tafakkur ixtilofga moyil bo'lsa, botin bilan boyitilgan tafakkur murosaga moyil bo'ladi.

5.2. Inson fitrati va ma'naviy bag'rikenglik

Tasavvufda inson pok fitrat bilan yaratilgan deb qaraladi. Bag'rikenglik esa shu fitratning tabiiy ifodasidir. Ammo nafs, kibr va manmanlik inson fitratini pardalab, ma'naviy torlikka olib keladi. Maxdumi A'zam insonning bag'rikeng yoki tor fe'l bo'lishi uning ilm darajasiga emas, balki nafsni jilovlash darajasiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

Bu yerda bag'rikenglik axloqiy talab emas, balki ontologik holat, ya'ni insonning vujudiy kamolot darajasi sifatida namoyon bo'ladi. Qalbi pok inson o'zgalarni inkor etmaydi, balki ularni anglashga harakat qiladi. Shu ma'noda tasavvufiy bag'rikenglik – ma'naviy yuksalishning natijasidir.

5.3. Komil murshid, fano va bag'rikenglik

Tasavvuf ta'limotida komil murshidning o'rni alohida ahamiyatga ega. Chunki murshid insonni nafs asoratidan qutqarib, fano maqomiga yetaklaydi. Fano – "men"likdan kechish, o'zini mutlaq haqiqat oldida yo'q qilish demakdir.

Mazkur holatga yetib borgan inson uchun "boshqacha fikr", "begona qarash" xavf emas, balki tafakkur imkoniyatiga aylanadi. Shu bois fano maqomiga yetishgan orif bag'rikeng bo'ladi. Demak, tasavvufiy bag'rikenglik ijtimoiy kelishuv emas, balki ma'naviy yuksalish samarasidir.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tasavvufiy ta'limotda bag'rikenglik tashqi murosaga emas, balki ichki ma'naviy kamolot mahsulidir. Zohir va botin uyg'unligi, nafsni jilovlash va komil murshid irshodi inson ongida bag'rikenglikni shakllantiradi. Bu yondashuv zamonaviy jamiyatda bag'rikenglik g'oyasini chuqur ma'naviy asoslar bilan boyitish imkonini beradi.

Ma'naviy kamolot falsafiy va tasavvufiy manbalarda bir qator umumiy prinsiplar asosida ifodalanadi: ixlos, ibodat, bilim, ma'rifati yuksalishi.

Klassik asarlar (Maxdumi A'zam, Qushayriy, Hujviriy, G'azzoliy, Rumiy, Jomiy) va zamonaviy tadqiqotlar (Abdullayev, Karimov) integrativ tahlil asosida inson ma'naviy rivojlanishini ilmiy jihatdan ochib beradi.

Mazkur maqolada quyidagi ilmiy yangiliklarga erishildi:

Bag'rikenglik g'oyasi ilk bor Maxdumi A'zam tasavvufiy qarashlari asosida ontologik va ma'rifiy kategoriya sifatida tahlil qilindi.

Zohiriy ilmga mutaassiblik va botiniy ma'rifat o'rtasidagi ziddiyat bag'rikenglik muammosi bilan bog'lab ochib berildi.

Bag'rikenglik inson fitrati va fano maqomi bilan bog'liq holda falsafiy jihatdan asoslab berildi.

Komil murshid irshodining ma'naviy bag'rikenglik shakllanishidagi hal qiluvchi o'rni ilmiy jihatdan yoritildi.

Maxdumi A'zamning "Risolai Tanbeh ul-ulamo" asari ilk bor bag'rikenglik g'oyasi nuqtai nazaridan tizimli tasavvufiy-falsafiy tahlil qilindi. Asar faqat tariqatni himoya qiluvchi risola sifatida emas, balki islom tafakkurida murosa, ma'naviy sabr va boshqani inkor qilmaslik konsepsiyasini asoslovchi manba sifatida talqin etildi.

Zohiriy ilm va botiniy ma'rifat o'rtasidagi qarama-qarshilik bag'rikenglik muammosi bilan bog'liq holda qayta konseptuallashtirildi. Muallif tomonidan ilgari surilgan "shariat-tariqat-haqiqat" uchligi inson ma'naviy kamolotining bosqichlari sifatida falsafiy jihatdan izohlandi.

Inson fitrati, majoziy vujud va haqiqiy vujud ta'limoti bag'rikenglikning metafizik asosi sifatida ochib berildi. Asardagi fano va vujuddan kechish g'oyalari insonda ichki kenglik va bag'rikeng tafakkur shakllanishining asosiy sharti ekanligi isbotlandi.

Komil murshid instituti bag'rikenglik madaniyatini shakllantiruvchi ma'naviy mexanizm sifatida asoslandi. Murshidsiz sulukning xatarli ekani haqidagi fikrlar zamonaviy ma'naviy tarbiya muammolari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Asardagi ulamo va fuqaholarga qaratilgan tanbeh falsafiy mulohaza sifatida qayta baholandi. Bu tanbeh shaxs yoki ilmga qarshi emas, balki ma'naviy torlik va mutlaqchilikka qarshi qaratilgan konseptual tanqid ekani ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Ilmiy yangilik: maqola zamonaviy fan va klassik tasavvufiy ta'limlarni uyg'unlashtirib, ma'naviy kamolotning yangi konseptual modelini taqdim etadi.

Ma'naviy kamolotning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati aniqlandi, shu bilan uning amaliyotga tatbiqi imkoniyatlari ko'rsatildi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Maxdumi A'zam tasavvufiy merosida bag'rikenglik inson ma'naviy kamolotining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv bag'rikenglikni faqat ijtimoiy talab emas, balki falsafiy-ontologik holat sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Maqolada inson ma'naviy kamoloti tasavvuf va falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Klassik va zamonaviy manbalarning tahlili ma'naviy rivojlanishdagi asosiy prinsiplarni ochib berdi.

Ilmiy yangilik shundaki, maqola falsafiy nazariyalar va zamonaviy tadqiqotlarni integratsiyalab, inson ma'naviy kamoloti konsepsiyasini rivojlantirdi. Bu natijalar ma'naviy va axloqiy ta'lim jarayonlariga tatbiq qilinish imkonini beradi.

Mavjud tadqiqotlar natijasida inson ma'naviy kamoloti faqat diniy yoki falsafiy nuqtai nazar bilan cheklanmasdan, ijtimoiy va iqtisodiy kontekstda ham tahlil qilinganligi aniqlandi.

Maxdumi A'zamning "Risolai Tanbeh ul-ulamo" asarida bag'rikenglik g'oyasi: jamiyatdagi ixtiloflarni yumshatuvchi, zohir va botin o'rtasida muvozanat yaratuvchi, insonni kamolotga yetaklovchi ma'naviy qoida sifatida talqin qilinadi.

Muallif fikriga ko'ra, tasavvuf — ilmga qarshi emas, balki ilmni bag'rikenglik bilan to'ldiruvchi yo'ldir. Zohiriy ilmni mutlaqlashtirish jaholatga, botiniy ma'rifat esa sabr, muhabbat va murosaga olib boradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tasavvufiy ta'limotda bag'rikenglik tashqi majburiyat yoki axloqiy qoida emas, balki insonning ichki kamolot darajasi bilan uzviy bog'liq holatdir. Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asarida zohiriy ilmga mutaassiblik ma'naviy torlik manbai sifatida tanqid qilinadi va botiniy ma'rifatga yuzlanish bag'rikenglikka olib boruvchi yo'l sifatida talqin qilinadi.

Shu ma'noda, tasavvufiy-falsafiy yondashuv zamonaviy jamiyatda bag'rikenglik g'oyasini chuqur ma'naviy asoslar bilan mustahkamlash imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Абдуллаев А. Ислом фалсафасида инсон муаммоси. – Тошкент: Фан, 2018.
2. Ғаззолий, Абу Ҳомид. Ихё улумид-дин. – Қоҳира: Дор ул-ҳадис, 2004.
3. Жомий, Абдурраҳмон. Нафаҳот ул-унс. – Техрон: Асотир, 2000.
4. Каримов Ш. Тасаввуф ва маънавий камолот. – Тошкент: Маънавият, 2021.
5. Қушайрий, Абулқосим. Ар-Рисолат ул-қушайрия. – Байрут: Дор ул-кутуб ал-илмия, 2002.
6. Куръони Карим. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 624 б.
7. Махдуми Аъзам. Рисолаи танбеҳ ул-уламо. Қўлёзма. ЎЗР ФА ШИ, инв. №1443-XXV1. – 357б–365а.
8. Румий, Жалолиддин. Маснавийи маънавий. – Техрон: Амир Кабир, 1998.
9. Ҳужвирий, Али ибн Усмон. Кашф ул-махжуб. – Техрон: Интишороти Исломия, 2001.
10. Имом Бухорий. Ал-жомеъ ас-саҳиҳ. – Қоҳира: Дор ул-фикр, 2005.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).